

FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA YILLIK VA OYLIK ISH REJASINI ISHLAB CHIQISHNING SAMARALI YO'LI

**O'rinboyev Diyorbek Niyozbek og'li - Andijon viloyati
Izboskan tumani. Izboskan 2- son kasib hunar maktabi
jismoniy tarbiya o'qituvchisi**

Kalit so'zlar: Nazariy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik (ujt-mjt), texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, individual, guruhli, jamoviy taktik harakatlar, musobaqa va o'yin tayyorgarligi.

Keywords: Theoretical training, physical training, technical training, tactical training, individual, group, collective tactical movements, competition and game training.

Dolzarbliqi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni futbolga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli futbolchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar tayyorlash va milliy terma jamoalar zaxirasiga futbolchilarni tayyorlab borish, trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, sport to'garaklarini tizimli to'g'ri tashkil etishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi. Ixtisoslashtirilgan futbol maktab internatlari murabbiylari, umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilarining futbol to'garaklarini yillik, oylik ish rejasini to'g'ri rejalashtirishning samarali usulini ishlab chikish.

Futbol bilan shug'ullanish organizmning umumiy jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi, ichki organlarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi, modda almashinuvini yaxshilaydi va harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi. Futbol to'garaklarini tashkil etishdan oldin barcha bolalar tibbiy ko'rikdan o'tishi va tibbiyot xodimining xulosasini olishi lozim. Futbol to'garaklariga shug'ullanuvchilarni qabul qilish, sport turlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda 10-11 yoshdan tavsiya etiladi. Kichik guruhga 10 yoshga yetmagan bo'lsa ham, ya'ni jismoniy tomondan yaxshi rivojlangan va mashg'ulotga tibbiy xodim tomonidan ruxsat etilgan o'quvchilar ham qabul qilishi mumkin [3;448].

O'g'il va qiz bolalar uchun alohida o'quv guruhlari tashkil qilinadi. Dastlabki tayyorlov guruhi va kichik o'smirlar guruhlari sport turlarining xususiyatlaridan

Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

kelib chiqib shug'ullanuvchilarning soni 20 nafar, o'smirlar guruhida 16 nafar o'quvchi bo'ladi. Shuningdek, har bir sinfga (guruhga) sardor saylanadi. Biz hozirgi kunga futbol to'garaklarida mashg'ulotlarni haftasiga necha marotaba o'tkazish maqsadga muvofikligini aniqlash maqsadida anketa so'rovnomasini o'tkazdik.

Andijon viloyati Izboskan tumani, Izboskan 2 - son kasib hunar maktabiing o'qituvchilari bu so'rovnomada qatnashdilar. Bu so'rovnomaga mavzuga oid 5 ta savol o'rta tashlanib muhokama qilindi.

Anketa so'rovnomasi bo'yicha ma'lumotlar

1-jadval

Savol	Xa	Yo'q
1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida futbol to'garaklari mashg'ulotlarini haftasiga 3 marotaba o'tkazish maqsadga muvofik bo'ladimi	86	14
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida futbol to'garaklari mashg'ulotlarini haftasiga 2 marotaba o'tkazish maqsadga muvofik bo'ladimi	43	57
3. O'quv yili davomida 34 hafta futbol to'garak mashg'ulotlarini olib borsa bo'ladimi	71	29
4. Shug'ullanuvchilardan o'kuv yilining boshida va oxirida maxsus testlarni qabul qilish kerakmi	86	14
5. Yil davomida rasmiy musobaqalardan tashqari o'rtoqlik uchrashularni tashkil qilish kerakmi	93	7

O'tkazilgan anketa so'rovnomasi shuni ko'rsatadiki, Andijon viloyati Izboskan tumani. Izboskan 2 - son kasib hunar maktabi o'qituvchilari 1-savolga 12 nafar (86%) ha, 2 nafar o'qituvchi (14%) yo'q deya javob berishdi. 2-savolga esa 6 nafar o'qituvchi (43%) ha, 8 nafar o'qituvchi (57%) esa yo'q deya javob berdilar. 3-savolga 10 nafar (71%) ha, 4 nafar o'qituvchi (29%) esa yo'q javobini berishdi. 4-savolga 12 nafar o'qituvchi (86%) ha, 2 nafar o'qituvchi (14%) esa yo'q deb javob berdilar. Oxirgi 5-savolga 13 nafar o'qituvchi (93%) va 1 o'qituvchi (7%) yo'q deb javob berishdi.

Bu so'rovnoma orqali biz hozirgi kunda futbol to'garaklarida mashg'ulotlarni haftasiga 3 marotaba o'tkazish maqsadga muvofikligini aniqlab oldik. O'smirlar guruhi uchun to'garakning davomiyligi bir o'quv yili uchun 9 oy, 34 hafta, mashg'ulotning davomiyligi 90-120 daqiqa yiliga 204-216 saotlik yillik, oylik mashg'ulotlar ish rejasi biz tomondan ishlab chiqildi (2-3-jadvallar) [1;44].

Futbol to'garaklari quyidagi me'yoriy hujjatlarga ega bo'lishi lozim:

Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

Xulosa. Sport to'garaklari mashg'ulotlarini haftasiga 3 marotaba o'tkazish, shug'ullanuvchilarda tezroq ko'nikma va malakalarni egallash imkonini beradi. Yil davomida o'rtoqlik va rasmiy musobaqalarda ishtiroq etish, tanlangan sport turining texnikasi va taktikasini o'rgatishda muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramov R.A. Futbol darslik: O'quv qo'llanma. O'z.DJTI.:2006.- 406 b.
2. Akramov R.A. Yosh futbolchilarni tanlab olish va tayyorlash: O'quv qo'llanma.-T.1989.-87 b.
3. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.Ye. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: Darslik.-T."Fan va texnologiya", 2017, 448 bet
4. S.X.Xabibullayev Sport va harakatli oyinlarni oqitish metodikasi (gandbol) o'quv qo'llanma Toshkent "Nazokathon ziyo print" 2023
5. Жураев, Вохиджон Мухаммедович. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.
6. Abdullayev, Rustam. "The Process Of Quality Education-As A Mechanical Combination Of Teaching And Learning Processes." Procedia of Social Sciences and Humanities 4 (2022): 57-59.
7. Abdullayev, Rustam. "INDICATORS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF FORENSIC SUPPORT FOR THE INSPECTION OF THE SCENE." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2022.
8. Араббоев, К. Т., and Е. Я. Михайлова. "ОБОСНОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПОСРЕДСТВОМ ТЕХНОЛОГИЙ ИНТЕГРИРОВАННОГО МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 753-757.945825205
9. Mukhammedovich, Juraev Vohidjon. "Psychological Features of Competitive Motivation of Athletes." Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 312-314.
10. Tokhirzhonovich, Arabboev Kakhramon. "The effect of physical activity on the body of schoolchildren in physical education lessons." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 112-115.
11. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE."

Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish
va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY
RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.

12. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.

13. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.

14. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat. "Analysis Of The Paradigm Of The Principles Of Overcoming The Problems Of Productivity Of Researchers Conducting Research In The Field Of Physical Culture." Journal of Positive School Psychology (2023): 529-534.